

XALQ OG‘ZAKI IJODI JANLARINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

*Farg‘ona viloyati Marg‘ilon shahar
23- sonli DTT direktor o‘rinbosari
Ibragimova Dilafruz Ma‘mirovna*

Annotatsiya

Maqolada xalq og‘zaki janrlari, alla, matal, maqol, xalq qo‘shiqlari asosida bolani tarbiyalashning pedagogik jihatlarini tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Folklor, Alla, Xalq qo‘shiqlari, Afsona, Ertak, Doston

THE IMPORTANCE OF FOLK FOLK GENRES IN THE EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

The article analyzes the pedagogical aspects of raising a child based on folk oral genres, alla, matal, proverb, folk songs.

Keywords: Folklore, Alla, Folk songs, Legend, Fairy tale, Doston

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo‘shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o‘zining yuksak orzu umidlari, zavq-shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og‘zaki ijodi o‘zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g‘oyalar bilan yo‘g‘rilganligi bilan yozma adabiyotdan ajralib turadi.

Bolalar folklori, ko‘pincha, kattalar tomonidan ijod qilinadi, ba’zi hollarda bolalar o‘z o‘yinchoqlari asosida o‘zlari ham alla, qo‘shiq va ovunmachoqlar to‘qiydilar. Bularning hammasi bir bo‘lib, faqat yaxshi tarbiyani targ‘ib qiladi. Bolalar xalq og‘zaki ijodining pedagogika bilan bog‘lanishi alladan boshlanadi.

ALLA-QO‘SHIQLAR

Alladir hayotda sevimli qo‘shiq,
Onalar kuylaydi yurakdan jo‘shib.

Bolasin umriga umrlar tilar,
Allaga dildagi niyatin qo‘shib.

Bu qanday sinoat, men bilolmadim,
Ta’riflga so‘zlar topa olmadim Allalar eshitib, o‘sib-ulg‘aydim,
Dard cheksam, allani tinglab sog‘aydim!

Bu hammaning gapi, hammaning dil so‘zi, hammaning allaga, onaga iqronomasi, ta’zimi. Yoshi ulug‘mi, kichikmi, alla eshitgan, alla og‘ushida, ta’sirida

o'sgan, ulg'aygan, esini tanigan, kamol topgan, inson bo'lgan.

Alla xalq og'zaki ijodining eng oliy namunasi hisoblanadi. Allada onaning o'yi, xayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi, kurashi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Alla millat tanlamaydi, uning matnini tushunmasa-da, ohangi-kuyini eshitgan har bir inson bosh chayqaydi, beshik kabi ohista tebratib, nadi, orom oladi, o'zini-o'zi taniydi, xayoli bolaligiga ketadi, hayotda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatib olishga intiladi. E'tibor bering:

Tol beshikni tebratib,

Ona aytar qo'shig'in. Qo'shiq bilan tebratar Dunyoning tol beshigin.

Bu beshikda ulg'ayar Necha ming, millionlar.

Ona mehri ziyosi Yuraklarga yo'l olar.

Bu beshikda tinglashar Mayin-mayin allalar.

Uchib o'tgan yel bilan Olam bo'ylab taralar.

Tol beshikni tebratib,

Ona aytar qo'shig'in.

Qo'shiq bilan tebratar

Dunyoning tol beshigin.

Alla qadimiy xalq qo'shig'i. Alla va beshik hamohang yuradi. Bu haqda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino: Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi, deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Buni dildan his qilgan ona chaqalog'ini o'zi suyib, e'zozlab, har narsadan yuqori qo'yib, alla aytadi:

Sen bog'imning bahori,

Sen umrimning nahori,

Sen qalbimning ohori,

Onajoni shunqori, alla-yo, alla.

Odatda, onaning orzu-armonlari bir talay bo'ladi. Dilidagi ezgu niyatlarini allaga qo'shib jo'shib kuylaydi. Bola, birinchi navbatda, sog'lom fikrli el-yurt o'g'loni bo'lib kamol topishi kerak. Mana bu allada shu g'oya yaqqol ko'zga tashlanib turadi:

Onasining erkasi,

Uxlab qolsin, alla-yo.

Bo'lsin inson sarasi,

Obro' olsin, alla-yo, alla.

Xalq qo'shiqlarida rasm-rusumlar rang-barang. Hammasi o'rinli, hammasi zarur. Masalan, qizaloqning sochini ilk bor yuvib-taraganda sochning uzunligi,

qalinligi, ko'rsa-ko'rgu- dekligi, katta-kichikning havasini keltiradigan darajada ko'rkamligi obdan maqtaladi. Ayrim qo'shiqlarda sochning ta'rifi oy-u quyosh bilan bog'lab kuyulanadi. Baquvvat sochning uzunligi cho'zsa oy va quyoshga ham yetib borishi quvnoq misralarda ifodalanadi:

Kunda — tutam.

Senga — kuyov,

Menga — palov.

Shu zaylda beshik qo'shiqlari kenja avlod kamolotida o'ziga xos tarbiya rolini o'taydi. Kichkintoylar ota-onalaridan, bobo- momolaridan chiroyli, ta'sirli alla, qo'shiqlar tinglab tillari biyron, o'ktam, ziyrak bo'lib ulg'ayar ekanlar endilikda o'zlari ham hayot yo'llarida qo'shiq to'qib, qo'shiq qanotida o'sib-ulg'ayishga harakat qiladilar.

Bolalarning aytishuv — “Oq terakmi, ko'k terak” qo'shiqlari ham hamma zamonlarda katta shuhrat qozonib kelgan. Bu qo'shiqda, ko'pincha, o'ziga xos obro'-e'tiborga muyassar bo'lgan bolalar tilga olinadi. Ularning ibratomuz jihatlari bolalar o'rtasida ta'kidlanishi qo'shiqning yanada jozibali chiqishini ta'minlaydi. Ayniqsa, bu aytishuv qo'shig'i bugungi kun, bugungi bolalar to'g'risida bo'lsa, yanada ajoyib bo'lishini quyidagi parchadan bilish mumkin:

Oq terakmi, ko'k terak, Ko'm-ko'k, ko'm-ko'k, ko'k terak,

Bizdan sizga kim kerak? Bizdan sizga kim kerak?

Erkin qo'zichoq kerak! O'zi a'lo o'qiydi,

Ola-bula kapalak, Tartibli ham odobli.

Orqa sochim jamalak. Hammani sevar,

Oq terakmi, ko'k terak, Tikishda chevar,

Bizdan sizga kim kerak? Barchadan chaqqon,

Xayri qizaloq kerak, Hammaga yoqqan

Oppoq-oppoq oq kurak. Go'zal Ozoda kerak!

Bu kabi aytishuv qo'shiqlari bolalarni mehnatkash, odob- axloqli, o'qimishli bo'lib kamol topishga da'vat etaveradi. Bun- day qo'shiqlar qanotida o'sgan har bir bola sog'lom fikrli, elsevar bo'lishiga hech shubha yo'q.

Bolalar xalq og'zaki ijodida maqollar yetakchi o'rinda turadi. Xalq yaratgan g'oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko'zi bilan qaraydigan, sof vijdonli, oliyjanob, mehnatkash kishining biror voqea-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko'proq bolalar uchun) yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib

kelinmoqda.

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o'zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik xislatlari, o'y- fikrlari o'ziga xos shaklda aks etgan bo'ladi. Shu sababdan ular bolalarni to'g'ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo'nda bayon etishga o'rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so'z boyligini ham oshirishga ko'maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda, birinchi navbatda, bola tarbiyasi — odob yotar ekan. E'tibor bering:

“Avval salom, ba'daz kalom”, “Avval o'yla, keyin so'y- la”, “Bola aziz — odobi undan aziz”, “Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan”, “Odob bozorda sotilmas”, “Odobning boshi til”, “Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l”, “Yaxshi xulq kishining husni”, “Ustozingga tik qarasang, to'zasan, hurmat qilsang, asta-sekin o'zasan”, “To'g'ri o'zar, egri to'- zar”. Bunday iboratomuz maqollar ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Bola to'g'riso'z, odobli, aqlli bo'lib kamol topmog'i lozim. Ana shunday bola bor ovoz bilan:

Ong ko'zimiz ochamiz,
Tong ko'zimiz ochamiz.
Boqamiz keng olamga,

Barchaga teng olamga! — deydigan bo'ladi. Ularning harakat, intilish, kurashlarida yuqoridagi maqollarning o'rni, albatta, katta bo'ladi.

Bola kamolotida, birinchi navbatda, salom-alik turadi. Salom-alikni o'rgangan, uni kanda qilmaydigan har bir bolaning ishi yurishadi, omadi chopaveradi. Axir xalq: “Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi”, deb bejiz aytmagan. Har qanday holatda ham salom o'rni bo'ladi. Salom-alikni dillariga jo qilib olgan bolalar hech qachon kam bo'lmaydilar.

Ko'plab ertaklarimizda uchraydigan odamzod dushmanlari — devlar, jinlar, yalmog'iz kampirlar, ajdarlar huzuriga odamzod borib salom berganida ham ular „Gar saloming bo'lmaganda ikki yamlab bir yutardim“, deydilar.

Inson hamisha biror qarorga kelishi, fikr bildirishi, gapirishi uchun dilidagi so'zini nechog'lik to'g'ri-noto'g'ri ekanligining mag'zini chaqib, so'ngra aytishi lozim. Aksincha bo'l-sa, o'ylamay-netmay, og'ziga kelgan gapni aytsa, do'stlari, muallimlari, odamlar o'rtasida izza bo'lib qolishi hech gap emas:

O'ylamasdan so'zlash qanday?
Menimcha, bu mumkin emas.
Odam o'ylab so'zlaydi,
O'ylamasang so'z unmas.

O‘ylamasdan so‘zlagan so‘z

Odamni qilar xafa.

Yo‘q, bugina emas, quruq valdirayveradigan bola, “Quruq so‘z quloqqa yoqmas” deganlaridek, o‘zini-o‘zi hijolat qiladi, el o‘rtasida uyatga qoladi:

So‘zi lop-lop, havoyi,

So‘zining yo‘q mag‘iz-moyi.

Shunday bola so‘zin el

Degan puchak, quruq yel

Yoqmas degan quloqqa,

Bormas degan uzoqqa.

Mehnatkash xalq to‘g‘ri so‘zlaydiganlarni, o‘rnida gapiradiganlarni bog‘bonga va u parvarish qiladigan daraxtga ham qiyoslashadi:

Egri shoxni bog‘bon ham

Kesib tashlar ko‘rgan dam.

Shu sabab to‘g‘ri o‘zar,

Egri esa ozar, to‘zar.

Bunday g‘oya bir qator ertaklarda, rivoyatlarda ham ilgari surilgan. Luqmoni Hakim bilan bog‘liq “Sukunatning xosiyati” rivoyati necha asrlardan beri kenja avlod tarbiyasida muhim o‘rin egallab keladi:

Luqmoni Hakim kunlardan bir kuni hazrati Dovudning oldiga boribdi. Dovud, odatdagidek, sovut zirhli kiyimlar tayyorlar, ya‘ni temir-tersaklar orasida ishlab o‘tirgan ekan.

Luqmoni Hakim dunyoga kelganidan buyon bunday ustaxonaga kirmagan, bunday kiyimlarning tayyorlanishini ko‘rmagan ekan. Shu boisdan bunday zirhli kiyimlar qanday kiyimlar ekanligini, uni kimlar kiyishini so‘ramoqchi bo‘libdi. Ammo ustoz: “Avval o‘yla, keyin so‘yla”, “Sabr qil — sabrning tagi oltin”, deb o‘rgatgan ekan. Shunga amal qilib, sabr qilibdi. Kiyimning tayyor bo‘lishini kutib turibdi. Hazrati Dovud kiyimni tayyorlab, kiyib olibdi-da, shodlanib, Luqmoni Hakimga shunday debdi:

Luqmoni Hakim, mana, ko‘rdingizmi, men sovuq temirdan qanday issiq kiyim tayyorladim. Buni kiyib, bermalol jangga kirib, bosqinchi dushmanning dodini berish mumkin.

Bu gapni eshitgan Luqmoni Hakim: “Sukut qanday buyuk aqllilikdir. Ustozimning aytganini qilib, sukut saqladim- da, qo‘pol xatodan saqlandim”, debdi ichida.

Har bir bola ilmiy, uquvli, kasb-hunarli bo‘lib kamol topishi lozim. Agar inson bunday xususiyatlarga ega bo‘lsa, birinchi navbatda, o‘zi hayotda qiynalmay, o‘zgalarga muhtoj bo‘lmay umr kechiradi. Ikkinchidan, bunday zotlar o‘z oilasini ham qiynalmay boqadi, ona-Vataniga ko‘mak beradi. Xalq bu haqda bejizga mana bunday

maqollarni to‘qimagan:

Bilim — kuchda,

Kuch — bilimda.

Davlat tugar, bilim tugamas.

Ilm — aql bulog‘i,

Aql — yashash chirog‘i.

Ilmlining so‘zi — o‘q,

Ilmsizning so‘zi yo‘q

Xulosa qilganda xalq og‘zaki ijodi janrlari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni nafaqat bog‘chada balki, oilada, ota-ona davrasida tarbiyalash metodikasi qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu borada ota-onalar uchun ham xalq og‘zaki ijodining sodda ko‘rinishidagi uslubiy ko‘rsatmalarini va qo‘llanmalarini tayyorlash zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. –T.: Yulduzcha. 1990.
2. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Sharq matbaa konserni. 2009.
3. O‘zbek xalq maqollari. –T.: Sharq. 2005.
4. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta‘lim yangilanish yo‘lida. –T.: O‘qituvchi, 2000.–224 b. 30.
5. F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Ma‘naviyat”. 2013 y. 86-88 b.